



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

Inclusive tourism holds considerable promise as a contributor to Uzbekistan's sustainable development agenda. Legal frameworks, international engagement, and early infrastructure efforts provide a foundational base for progress. However, meaningful implementation requires more than policy — it demands data, decentralized investment, workforce education, and cultural transformation.

Key recommendations include:

- Establishing a national data system to track tourists with accessibility needs;
- Decentralizing funding to empower regional administrations;
- Mandating inclusivity training for all tourism personnel;
- Supporting digital innovations tailored to people with disabilities;
- Partnering with volunteer organizations and NGOs;
- Promoting public education campaigns to reshape societal attitudes.

By addressing these structural and social challenges, Uzbekistan can strengthen its position as a leader in inclusive tourism in Central Asia. With continued commitment and multi-stakeholder collaboration, the country can ensure that travel experiences are not only enjoyable — but accessible — for everyone.

References

1. Lex.uz. (2024). Presidential Decree No. 20 of January 12, 2024. Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/6759708>
2. Lex.uz. (2020). Law of the Republic of Uzbekistan dated October 15, 2020 No. 641 (Articles 23, 24, 25, 27). Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/5049549>
3. Lex.uz. (2021). Law of the Republic of Uzbekistan No. 695 dated June 7, 2021 (ratification of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities). Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/5447430>
4. Витовский, А. В., & Чурилина, И. Н. (2021). Инфраструктура инклюзивного туризма как доступность социокультурного пространства для устойчивого развития региона (на примере Санкт-Петербурга). — С. 171.
5. Борисенко-Клепач, Н. М. (2016). Инклюзивный туризм: что, как и зачем? Минск. — С. 9.
6. Екатеринбург (2021). Инклюзивный туризм как направление деятельности некоммерческой организации (на примере АНО «ЭКОТУР», г. Чусовой, Пермский край). — С. 11.
7. Белоусова, Н. В. (2019). Туризм и гостеприимство, №1. ISSN 2410-3810. Естественнаучные аспекты туристической деятельности (география, биология, экология, здоровье сбережение). — С. 41. Национальный авиационный университет, г. Киев, Украина.
8. Kun.uz. (2023, October 16). Шавкат Мирзиёев призвал объявить 2025 год Всемирным годом инклюзивного туризма. Retrieved from: <https://kun.uz/ru/news/2023/10/16/shavkat-mirziyoyev-prizval-obyavit-2025-god-vsemirnym-godom-inklyuzivnogo-turizma>

AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Sayfulloyev Oybek Olimovich
Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot
kafedrası o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: maqolada agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning xorij tajribasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi qayd etilgan. Agroturizmga investitsiyalarni jalb etish bo'yicha hududiy dasturlar doirasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilangan. Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, agroturizmni rivojlantirishning hududiy dasturini amalga oshirishning 3 darajasi keltirilgan. Xorijiy tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston sharoitida hududlarda agroturizm faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'nalishlarini belgilangan.

Hududlarda agroturizmni tashkil etish va faoliyat yuritishini boshqarishning samarali modelini ishlab chiqilgan. Agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni 3 bosqichda amalga oshirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, agroturizm, investitsiya, hududiy dasturlar, qishloq turizmi, boshqaruv, mexanizm, ekologik faoliyat, qishloq xo'jaligi, sayyoh, aholi daromadlari

Adabiyotlar tahlili

Turizmning agroturizm shakli, ekoturizm, sport turizmi, tog' va ekstremal turizm, etnik turizm kabi muvaffaqiyatli turizm biznesini yuritishning bir shakli sifatida, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish, qishloq joylarida resurslarni tejash va ko'paytirish, sayyohlik hududlarining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy farovonligini ta'minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qishloq joylarining agrar, tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, tijoriy va boshqa resurslaridan foydalanish orqali sayyohlik mahsulotini yaratish "agroturizm", "yashil turizm", "etnoturizm", "ekoturizm", "qishloq turizmi" kabi tushunchalar bilan ifodalanadi. Shu sababli, ko'plab mualliflar agroturizmning ayrim turlarini, yo'nalishlarini ifodalovchi ta'riflarni qo'llashadi.

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) rasmiy saytida agroturizmga: "sayyohlarning hordiq chiqarishi, odatda ekologik faoliyat, qishloq xo'jaligi, qishloq turmush tarzi, madaniyati, baliq ovlash va sayr qilish kabi keng turdagi xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan turizm faoliyati turi" deb ta'rif berilgan. Shuningdek, tashkilotning rasmiy saytida agroturizm:

- aholi zichligi kam bo'lgan;
- o'rmon va qishloq xo'jaligi ustuvor bo'lgan;
- an'anaviy ijtimoiy tuzilish va turmush tarziga ega bo'lgan qishloq joylarida amalga oshirilishi lozimligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan¹.

Mashhur tadqiqotchi J.W.Kloeze qishloq turizmi ta'rifiga hududiy asosda yondashadi. Uning fikricha "qishloq turizmi qishloq sharoitida rivojlanayotgan barcha turistik faoliyatlarni o'z ichiga oladi"².

P.Nistureanu tadqiqotlarida J.W.Kloeze tadqiqotlari bilan umumiy jihatlar ko'zga tashlansada, u nisbatan kengroq ta'rifni ishlatadi. Uning fikricha, "qishloq turizmi – bu mahalliy aholi tomonidan qishloq joylarida tashkil etilgan va boshqariladigan hamda insonning atrof-muhit bilan yaqin munosabatlariga asoslangan sayyohlik faoliyatidir"³.

M.Kaluina o'z tadqiqotlarida shunga o'xshash, ya'ni "qishloq joylaridagi turizm deganda dehqonlarning o'z xo'jaliklarida sayyohlarga xizmat ko'rsatishi tushuniladi" degan ta'rifni keltiradi.

H.Marquez agroturizmni qishloq turizmining o'ziga xos turi sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning tadqiqotlarida sayyohlarning turar joyi fermerning yashash manzili atrofida tashkil etiladi hamda sayyohlarga bevosita qishloq xo'jaligi hamda unga bog'liq faoliyatlar bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi⁴.

Bizning fikrimizcha, "agroturizm – shaxsiy uy, tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, shuningdek, turli investorlar tomonidan sayyohlarga qishloq hayoti, turmush tarzi, madaniyati bilan bog'liq bo'lgan xizmat turlarini taklif etishda ifodalanuvchi iqtisodiy faoliyat turidir"⁵. O'z ta'rifimizda agroturizm xizmatlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan subyektlarni hamda sayyohlarga aynan qanday turdagi xizmatlar ko'rsatilishi lozimligini ochib berdik. Shuningdek, agroturizmga investitsiya obyekti sifatida yondashdik.

Materiallar va metodlar

¹Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) sayti ma'lumotlaridan foydalanildi. <https://www.unwto.org/rural-tourism>

²Bartmann B., Baum T. Promoting the particular as a niche cultural tourism development strategy in small jurisdictions //CAUTHE (8th: 1998: Gold Coast, Qld.). – Canberra, ACT : Bureau of Tourism Research, 1998. – C. 691-699.


³Europe in figure.Eurostate yearbook. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2010 y. 17 p.

⁴Marques H. Searching for complementarities between agriculture and tourism—the demarcated wine-producing regions of northern Portugal // Tourism Economics. – 2006. – Vol. 12. – No. 1. – P. 147– 155.

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini samarali boshqarish mexanizmlarini tanlash, agroturizmga innovatsion faoliyatni faollashtirishini ta'minlaydi. Agroturizm rivojining 1-to'liqini yuz bergan G'arbiy agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishni faol qo'llab-quvvatlashning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligini tarkibiy jihatdan qayta qurishda namoyon bo'ldi. Ushbu mamlakatlar tomonidan agroturizmni rag'batlantirish qishloq hududlaridagi ortiqcha mehnat resurslarini xizmatlar va ishlab chiqarishning muqobil sektoriga yo'naltirish, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashishga asoslangan. Natijada, ushbu siyosat katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga olib keldi. Mamlakatlar agroturizmni qo'llab-quvvatlashning makroiqtisodiy va mezoiktisodiy dasturlari bilan qishloq aholisi va fermerlariga qishloq xo'jaligiga oid an'anaviy bilimlarni yo'qotmasdan, o'z kapitalini tejashga, investitsiya shaklida turizmga yo'naltirishga hamda uni ko'paytirishga, doimiy yashash joyini va odatdagi turmush tarzini saqlab qolishga yordam berdi. Yevropa fermerlari hamda qishloq aholisi uchun davlat tomonidan tashkil etilgan imtiyozli kreditlash (yoki subsidiyalash) tizimining yaratilganligi, agroturistik obyektlar egalariga turar-joy binolarini qayta jihozlash uchun imtiyozli soliq solish tizimining ishlab chiqilganligi, asosiy faoliyatdan tashqari to'g'ridan-to'g'ri daromad olish imkoniyatining yaratilganligi sababli agroturizmga investitsiya kiritish jozibador bo'lib bordi.

O'zbekistonda agroturizm rivojida mavjud bo'lgan muammolarni samarali hal qilish uchun agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni qabul qilish zarur. Agroturizmni rivojlantirishning davlat va hududiy dasturlari bozorning turli subyektlari - xususiy sektor, davlat, mahalliy davlat hokimiyati va vakolatli organlar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni o'z ichiga olishi lozim, chunki O'zbekiston sharoitida agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning aynan shu shakli eng samarali hisoblanadi. Dasturning maqsadi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va turizmning maqbul kombinatsiyasi asosida tashkil etiluvchi agroturizmni rivojlantirish, uning bugungi kunda sezilarli darajada kam baholangan salohiyatini ochib berish, sohaga investitsiyalarni faol jalb qilishni rag'batlantirishdan iborat. Fikrimizcha ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha vazifalarni hal etish lozim bo'ladi (1-rasm):



1-rasm. Agroturizmga investitsiyalarni jalb etish bo'yicha hududiy dasturlar doirasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar¹

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qishloq turizmi sohasida xalqaro va mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish, bu hukumatlararo munosabatlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xususiy sektor va jamoat birlashmalari orqali xalqaro agroturizm tashkilotlari bilan aloqalarni o'rnatishni ta'minlaydi.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, agroturizmni rivojlantirishning hududiy dasturini amalga oshirish 3 darajani o'z ichiga oladi:

1-daraja – davlat miqyosida, agroturizmga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi, shu jumladan: qonunchilik bazasini mustahkamlash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kadrlar bilan ta'minlash va global axborot ta'minotini amalga oshirish kabilar.

2- daraja – viloyat miqyosida, bu bir vaqtning o'zida mintaqada agroturizm bilan shug'ullanadigan ko'plab tadbirkorlar manfaatlari uchun ishlaydigan agroturistik klasterlarni, shu jumladan murakkab agroturistik diqqatga sazovor joylarni shakllantirishni ta'minlaydi.

3-daraja – hudud (tuman yoki investitsiya loyihalari amalga oshirilishi belgilangan hudud) miqyosida, ushbu darajada agroturizm xizmatlarini potensial taklif etuvchisi va investori bo'lgan fermer, dehqon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo'jaliklarning manzilli ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, mahalliy madaniy, moddiy va tabiiy merosning turistik jozibadorligini oshirish bo'yicha ishlar olib boriladi. Bu darajada agroturizm sohasida o'z-o'zini tashkil etish va hamkorlik muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar

Hududlarda agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng muhim sharti qishloq aholisini ushbu faoliyat turiga faol jalb etish, agroturizmining foydali va nufuzli faoliyat turi sifatidagi ahamiyatini yoritib berish, ularning taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori sifati uchun sohani aniq tushunishi va mehmonlarni qabul qilishga tayyorligi va intilishidir. Ushbu shartning bajarilishi o'z-o'zini tashkil etishda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, o'z ishiga hurmat va an'anaviy o'zbek qishlog'ining insonparvarlik salohiyatini namoyon etish kabi ijtimoiy-psixologik omillarga ham asoslanadi. Shuningdek, hududiy dasturning muvaffaqiyatli amalga oshishi qishloq joylarining resurs imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun sharoitlar yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarning xilma-xilligini, hududlarning agroturizm bo'yicha investitsion jozibadorligini hisobga olgan holda, hududiy dasturlarni qabul qilishda agroturizmni tashkil etishning turli yo'nalishlarini ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Xorijiy tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston sharoitida hududlarda agroturizm faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'nalishlarini belgilash tavsiya etiladi:

a) hududlardagi tarixiy va an'analar saqlanib qolgan qishloq joylarida mavjud ijtimoiy-madaniy muhitga qisman o'zgartirishlar kiritish orqali kichik oilaviy mehmonxona uylari va hududning mavjud agroturistik resurslari asosida agroturizmni tashkil etish.

Ushbu yo'nalishda agroturizm faoliyatini tashkil etish qishloq aholisini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasidan parallel ravishda xizmat ko'rsatish sohasiga o'tkazish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishni, belgilangan qishloq hududlarini qo'llab - quvvatlashga qaratilgan strategiyani milliy darajada qabul qilishni nazarda tutadi. Ushbu strategiya mavjud qishloq uy-joylari va qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchilar (dehqon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo'jaliklar va boshqalar) asosida turar joylar tarmog'ini (xususiy mini-mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, namunaviy qishloq uylari) va sayyohlar uchun ixtisoslashtirilgan ko'ngilochar muassasalarni (sport markazlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, otxonalar va boshqalar) rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

b) qishloq joylarida yirik va o'rta xususiy agroturizm obyektlarini barpo etish.


“Tarixiy yoki milliy qishloqlar” ko'rinishidagi ixtisoslashgan xususiy mehmonxonalar, tarixiy qishloq zodagoni, savdogari, dehqon uylari, madaniy-etnografik markazlar, hududga xos bo'lgan meva-sabzavotlar yetishtiriladigan bog'lar barpo etish, milliy taomlar tayyorlash, qishloq xo'jaligi ishlarida birgalikda ishtirok etish imkoniyatini yaratib berish va boshqalar. Agroturizm faoliyatini tashkil etishning ushbu yo'nalishidan foydalanish qishloq joylarda uy-joy fondining qulayligi va xizmat sifati past bo'lgan, ammo yaxshi sayyohlik salohiyatiga ega bo'lgan hududlar uchun xosdir. Ushbu yo'nalish maxsus loyihalarni ishlab chiqishni, katta investitsiyalarni jalb

qilishni va keng qamrovli ilmiy tadqiqot va marketing ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni talab qiladi.

c) agroturizm parklarini barpo etish.

Agroturizmni rivojlantirishdan tashqari, ushbu yo'nalish ma'lum bir mamlakat yoki hududning qishloq xo'jaligi yutuqlarini ommalashtirish va targ'ib qilish, tarixiy ko'nikmalarni saqlash va milliy (an'anaviy) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnikasi va usullarini, milliy taomlarni tatib ko'rish va tayyorlashni namoyish etishga qaratilgan bo'ladi. Agroturizm parklari ko'p funksiyali markazlar bo'lib, sayyohlar uchun ko'ngilochar obyektlar, doimiy ko'rgazma va ekspozitsiya markazlarini barpo etish bilan birgalikda bir vaqtning o'zida ilmiy-tadqiqot va naslchilik ishlari olib borilishi mumkin. Ushbu yo'nalish ham yirik davlat yoki xususiy investitsiyalarni amalga oshirishni talab qiladi.

Hududlarda yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha agroturizmni tashkil etish va faoliyat yuritishini boshqarishning samarali modelini tanlash zaruriyati ham yuzaga keladi. Samarali modelni tanlashda ushbu algoritmgga amal qilish tavsiya etiladi (2-rasm).



2-rasm. Hududlarda agroturizmni tashkil etish va faoliyat yuritishini boshqarishning samarali modelini tanlash algoritmi¹

Xulosa va takliflar

Ushbu algoritm asosida tadqiqot doirasida hududlarda agroturizmni tashkil etish va faoliyat yuritishini boshqarishning 3 xil modelini taklif etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu boshqarish modellari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1-model. Poli investor boshqaruv modeli.

Bunda hududlarning agroturizm bo'yicha tabiiy, investitsion va boshqa parametrlar bo'yicha salohiyati tahlil qilingan holda maqbul bo'lgan hududlar aniqlanadi. Ushbu hududlarda vakolatli organlar tomonidan maxsus yer maydonlari ajratiladi yoki qishloqlar tanlanadi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan jahon tajribasi tahlil qilingan holda agroturizm xizmatlari ko'rsatish uchun maqbul bo'lgan yer maydoni miqdori, ularda joylashadigan xizmat ko'rsatuvchilar xaritasi ishlab chiqiladi. Tanlangan hududlarda ishlab chiqilgan agroturizm kompleksi xaritasi asosida 3 ta: qishloq xo'jaligi faoliyati olib borish, sayyohlarga turizm xizmatlarini taklif qilish, sayyohlarga boshqa yondosh xizmatlarni taklif qilish yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ixtisoslashgan investorlar jalb qilinadi. Alohida loyihalarga investorlarni jalb qilish uchun yagona investitsiya platformasi yaratiladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu modelning o'ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (1-jadval).

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Poli investor boshqaruv modelining ustun va zaif tomonlari¹

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari
✓ agroturizm kompleksida jalb qilinadigan investorlar o'zlarining ixtisosliklari bo'yicha faoliyat turi bilan band bo'lishadi; ✓ har bir subyekt o'zi ixtisoslashgan hamda yaxshi tushunadigan faoliyatni olib borishi natijasida sayyohlarga sifatli xizmat turlari taklif qilinadi; ✓ agroturizm kompleksida ko'rsatiladigan xizmat turlarining diversifikatsiyasi ro'y beradi; ✓ qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchilar bilan sheriklik aloqalarini o'rnatish va ularning mahsulotlaridan mehmonxona biznesini rivojlantirish uchun foydalanish imkoniyati yaratiladi.	✓ agroturizm kompleksida bir-biridan mustaqil bo'lgan ko'plab subyektlar jalb qilinishi natijasida murakkab munosabatlar tizimi shakllanadi; ✓ faqatgina qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar uchun agroturizm xizmatlaridan umumiy daromad miqdorining taqsimlanishi zaruriyati yuzaga keladi; ✓ yer bilan bog'liq munosabatlarning murakkabligi; ✓ cheklangan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'lami hamda biznesni kengaytirish imkoniyatlarining yuqori emasligi; ✓ agroturizm xizmatlariga talabning mavsumiy o'zgarishi mavjudligi, bu esa daromadlarning beqarorligiga olib kelishi mumkin.

2-model. Mono investor boshqaruv modeli.

Bunda ham 1-model singari maqbul bo'lgan hududlar aniqlanadi, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan jahon tajribasi tahlil qilingan holda agroturizm xizmatlari ko'rsatish uchun maqbul bo'lgan yer maydoni miqdori hamda ularda joylashadigan xizmat ko'rsatish obyektlari xaritasi ishlab chiqiladi. Farqi, tanlangan hududlarda ishlab chiqilgan agroturizm kompleksi xaritasi asosida har bir hudud uchun yagona investor jalb qilinadi. Qishloq xo'jaligi faoliyatini olib borish, turizm va unga yondosh bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish yagona investor tomonidan amalga oshiriladi. Miqtaqada tanlangan hududlardagi barcha investorlar yagona agroturizm klasterida birlashishadi. Agroturizm komplekslarini turli xil ko'rinishlarda, bir-birini takrorlamaydigan hamda bir-birini to'ldiruvchi shaklda loyihalashga alohida e'tibor beriladi. Zarur tashqi infratuzilma vakolatli organlar tomonidan ta'minlanadi. Ushbu modelning ham o'ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (2-jadval).

Mono investor boshqaruv modelining ustun va zaif tomonlari²

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari
✓ hududdagi barcha agroturizm xizmatlari bitta investor tomonidan tashkil etilishi natijasida boshqaruv jarayonlarining soddalashuvi ro'y beradi; ✓ bozor sharoitidan kelib chiqib, klasterning strategiyasi va taktikasida o'zgarishlar oson yuz beradi; ✓ klasterga a'zo agroturizm komplekslari orasida ularning rivojlanishiga sabab bo'luvchi sof raqobat yuzaga keladi;	✓ yirik investorlarni jalb qilish muammosi yuzaga keladi; ✓ muvaffaqiyatli agroturistik kompleksini yaratish uchun investorning katta mablag' sarflashiga to'g'ri keladi; ✓ investordan bir vaqtda qishloq xo'jaligi hamda turizm sohasida bilim va tajribaga ega bo'lish talab etiladi; ✓ barcha faoliyat turlari bir investor tomonidan olib borilishi natijasida xizmatlar

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

✓ agroturizm istiqbolli soha bo'lganligi sababli boshqa raqobatchilarga nisbatan oldinroq bozorga kirib kelish imkoniyati yaratiladi.	sifatining pasayish ehtimoli mavjud.
---	--------------------------------------

3-model. Klassik boshqaruv modeli.

Bu model hududlarning mavjud agroturistik salohiyatidan foydalanishga asoslangan. Bunda vakolatli organlar tomonidan birinchi navbatda o'ziga xos bo'lgan, an'analar saqlanib qolgan, agroturistik potentsiali yuqori bo'lgan hududlar (qishloqlar) tanlanadi. Ushbu hududlarda agroturizm bo'yicha ma'lumotlar berish, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yoritib berishga asoslangan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Sohaga o'z mablag'larini yo'naltirish istagini bildirgan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar hamda qishloq aholisi ro'yxati shakllantiriladi. Potensial investorlar tanlanadi. Ularga har tomonlama yordam ko'rsatiladi. Qishloq aholisi uchun oilaviy mehmon uylari, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar uchun agroturizm komplekslari loyihalarining namunaviy shakllari taklif qilinadi. Barcha subyektlar umumiy agroturizm klasterida birlashishadi. Zarur infratuzilma obyektlari yaratiladi. Ushbu modelning ham o'ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (3-jadval).

3-jadval

Klassik boshqaruv modelining ustun va zaif tomonlari¹

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari
✓ o'ziga xos turizm qishloqlari shakllanadi; ✓ qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ✓ qishloqlarda zaruriy infratuzilma shakllanadi; ✓ mahalliy ishlab chiqarish rivojlanadi hamda aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining faol savdosi yo'lga qo'yiladi; ✓ mahalliy an'analar va madaniy qadriyatlar uzoqroq saqlanib qoladi.	✓ qishloqlarda xizmat ko'rsatishning past darajasi tufayli sayyohlik bozorining yo'qotishlarga uchrashi ehtimoli; ✓ tashrif buyurgan sayyohlar mahalliy aholining kundalik hayotida ma'lum bir noqulayliklarga sabab bo'lishi; ✓ sayyohlar uchun infratuzilmani yaratish zarurati qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchilar uchun qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qilishi, bu esa ularning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin; ✓ agroturizm qishloq joylariga tashrif buyuruvchilar sonining ko'payishi va tabiiy resurslarga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq ekologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Hududiy dasturlar asosida taklif etilayotgan hududlarda agroturizmni tashkil etish va faoliyat yuritishini boshqarish modellarining asosiy vazifasi hududlarda agroturizmni rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishdir.

Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda investitsion jozibadorligini baholash tizimi asosida turli boshqaruv modellarini qo'llash mumkin. Agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni 3 bosqichda amalga oshirish taklif etiladi.

1-bosqich. Agroturizmni rivojlantirish bazasini shakllantirish (2025-2026-yillar).

Ushbu bosqich qonunchilikni optimallashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini yaratish va ularning zaxirasini shakllantirish, agroturizmni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish, agroturizm infratuzilmasini rivojlantirish, mavjud agroturizm obyektlarining muvaffaqiyatli tajribasini targ'ib qilish va yangi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

loyihalarni boshlash muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, agroturizmga doir loyihalarni hududlar kesimida amalga oshirish mexanizmlarini yaratish, investorlar bazasini shakllantirish, ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda jahon tajribasini o'rgangan holda hududlarning xususiyatidan kelib chiqib qayd etilgan agroturizmni tashkil etish yo'nalishlari va turli boshqaruv modellarini qo'llash asosida loyihalarni amalga oshirishga erishish. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hududlarning investitsion jozibadorligini baholash tizimi asosida "istiqboli" tumanlarda dastlabki agroturizm komplekslarini barpo etish.

2-bosqich. Agroturizm bozorining o'sishiga erishish (2027-2028-yillar).

Oldingi bosqichda ishlab chiqilgan mexanizm va tajriba asosida kumulyativ samarani yaratish va hududlarga o'z yo'nalishiga ega bo'lgan agroturizm obyektlari sonining, ularga tashriflar sonining tez o'sishini ta'minlash va shunga mos ravishda hududlarda agroturizmni rivojlantirishdan bevosita moliyaviy samaraga erishish. Fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash. Qishloq aholisida qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratish. Mavjud tajriba asosida agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hududlarning investitsion jozibadorligini baholash tizimi asosida "barqaror" va "o'suvchi" tumanlarda ham agroturizm komplekslarini barpo etish choralari ko'rish.

3-bosqich. Rivojlangan va raqobatbardosh agroturizm bozorini yaratish (2029-2030-yillar).

Fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, qishloq aholisining hayot va iste'mol sifatini oshirish, agroturizm tufayli mamlakat fermerlarining mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasini, o'z yo'nalishiga ega bo'lgan qishloqlarning an'analari va madaniy hayotini saqlab qolish hamda jahon bozorida tan olinishiga erishish. Mavjud tajriba barcha tumanlarda agroturizm komplekslarini barpo etish choralari ko'rish. Ushbu bosqichda agroturizm bozorining rivojlangan va raqobatbardosh bosqichiga o'tishi tufayli agroturizm obyektlari soni biroz kamayishi mumkin, ammo shu bilan birga mavjud obyektlarning rentabelligi, ulardagi tunab qolishlar soni va umumiy daromad o'sishda davom etadi. O'z brendiga ega bo'lgan agroturizm obyektlari yuzaga chiqadi. Agroturizm aholining sayohat qilishida mashhur yo'nalishga aylanadi. To'plangan tajriba agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishning mavjud mexanizmlariga qo'shimcha ta'sirchan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda agroturizmni rivojlantirishning uzoq muddatli ta'siri namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 sonli farmonida turizm xizmatlari eksportini 2030-yilga borib 5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilangan¹. Agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida 2030-yilga kelib umumiy turizm eksporti hajmida agroturizm ulushini 5 foizga yoki 250,0 mln. AQSH dollariga yetkazish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bartmann B., Baum T. Promoting the particular as a niche cultural tourism development strategy in small jurisdictions //CAUTHE (8th: 1998: Gold Coast, Qld.). – Canberra, ACT : Bureau of Tourism Research, 1998. – C. 691-699.
2. Marques H. Searching for complementarities between agriculture and tourism—the demarcated wine-producing regions of northern Portugal // Tourism Economics. – 2006. – Vol. 12. – No. 1. – P. 147– 155.
3. Europe in figure.Eurostate yearbook. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2010 y. 17 p.

¹Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6600413>.

KIRISH	3
1-SHO'BA. INKLYUZIV TURIZMDA INFRATUZILMA, KADRLAR VA TEXNOLOGIYALAR: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	4
O.X.Xamidov. BUXORODA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA IMKONIYATLARI	4
B.N.Navro'z-zoda. INKLYUZIV TURIZM - IJTIMOİY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUHIM OMILI	5
Abror Turobovich Jurayev. BUXORO SHAHRIDA INKLYUZIV TURIZM RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	6
Nutfillo Salimovich Ibragimov, Sharipov Bekzod Sherzodovich. META KO'LAMDA TURIZM DESTINATSIYASI RAQAMLI INKLYUZIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	8
D.SH.Yavmutov, O.S.Qahhorov. INKLYUZIV TURIZMNING MAZMUN MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI	16
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Akromova Muklisa Saydimuxtor qizi. GREEN AND INCLUSIVE ARCHITECTURAL APPROACHES IN TOURISM INFRASTRUCTURE	20
Abdulxakimov Zuhrali Tursunalievich. "SAFED BULON YOKI SHOX JARIR" ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	25
Alimova Shaxnoza Oktyamovna, Yuldashev Kamol Sharifovich. WELLNESS TURIZMDA INKLYUZIV SAYYOHLAR UCHUN SHART-SHAROITLAR: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	28
Odil Radjabov, Istamkhuja Davronov, Ruxangiz Mavlonova. INCLUSIVE TOURISM OPPORTUNITIES IN THE HISTORICAL CENTRE OF BUKHARA	33
Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich. HUDUDLARNI INKLYUZIV O'SISHINI TA'MINLASH:XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	36
D.B. O'roqova. O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASIDA INKLYUZIV TURIZM RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	39
2-SHO'BA. O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SIYOSATI: HUQUQIY BAZA VA SEKTORLARARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI	44
Davronov Istamkhuja, Radjabov Odil, Zayniddinova Nafisabonu. INCLUSIVE TOURISM IN BUKHARA'S HISTORIC CORE: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND STRATEGIC PATHWAYS	44
Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlanishining shakllanish bosqichlari va inklyuziv iqtisodiy o'sish	47
Dushanova Yulduz Faxriddinovna. SMART AND INCLUSIVE TOURISM: LEVERAGING TECHNOLOGY TO CREATE ACCESSIBLE TRAVEL EXPERIENCES FOR ALL	51
Ergasheva Aziza Farmonovna. MAHALLIY TURISTIK MARSHRUTLARDA AYOLLAR KOOPERATSIYALARI: BUXORO "ZARDOZI — SUZANI — KULOLCHILIK" KLASTERINI GENDER-INKLYUZIV BIZNES MODELİ ORQALI KENGAYTIRISH	55
Файзиева Сайёра Кудратовна. ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	59
Khaydarova Dilora Ikhtiyorovna. STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN: A CASE STUDY OF SOUTH KOREA	65
Axmatova Mohigul Ergash qizi, Haydarova Nigina Ro'zimurod qizi. TURIZM INDUSTRIYASIDA NOGIRONLAR UCHUN INKLYUZIV TABIAT TURIZMI YO'LLARI ..	68

Hamidullayeva Mumtozabegim Rustam qizi, Munisa Mansurovna Bahrombekova. DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN: CURRENT CHALLENGES AND OPPORTUNITIES	251
Sayfulloyev Oybek Olimovich. AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	256
Давронова Нигора Фармоновна. МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ОСОБЕННОСТИ КОНСТРУКЦИИ ДОМОВ Г. БУХАРЫ В XVI-XIX ВВ.	264